

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI Ph.D.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**TAJIBAYEVA LATOFAT FARXODOVNA**

**YANGI O'ZBEK SHE'R'IYATI GENEZISI VA TARAQQIYOT  
TAMOYILLARI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**URGANCH-2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Tajibayeva Latofat Farxodovna**

Yangi o'zbek she'riyati genezisi va taraqqiyot tamoyillari.....3

**Тажибаева Латофат Фарходовна**

Генезис и принципы развития новой узбекской поэзии.....23

**Tajibayeva Latofat Farhodovna**

The genesis and development principles of new Uzbek poetry.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**TAJIBAYEVA LATOFAT FARXODOVNA**

**YANGI O'ZBEK SHE'RIYATI GENEZISI VA TARAQQIYOT  
TAMOYILLARI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**URGANCH-2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Fil1044 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog' davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**G'ayipov Dilshod Qadambayevich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yakubov Islamjon Axmedjanovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**


**Nukus davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, ye-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](mailto:www.fil-ik.urdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~P-64~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).



 **Z.Do'simov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

 **S.M.Sariev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

 **A.D.O'razboev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi v.v.b, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida poetik tafakkur va uning xossalari, muayyan millat she'riyatining tadrijiy takomil bosqichlari, bunda ijodkor individual tafakkurining tutgan o'rni, ijodkor shaxs va jamiyat munosabatlari kabi masalalarga o'tibor tobora ortib bormoqda. Chunki adabiyot va uning eng faol turi bo'lgan she'riyat nafaqat ijodkor dunyoqarashi va idealini ifoda etadi, balki adib yoki shoir mansub millatning ruhiyatini, orzu-armonlarini, istiqbol bilan bog'liq fikr-o'ylarini o'zida mujassam qiladi. Shuning o'ziyiq bu masalaga kompleks va tizimli yondashuvni taqozo etadi.

Jahon adabiyotshunosligida jamiyat taraqqiyotining burilish nuqtalarida badiiy adabiyotning ijtimoiy hayotga va o'z navbatida, ijtimoiy hayotning adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri, xalqning xalq, millatning millat bo'lishida hamda yangicha tafakkurni shakllantirishda adabiyotning o'rni har doim mutaxassislarining diqqat markazida turgan dolzarb masalalardandir. Bu jarayonda adabiyot, poetik tafakkur yangilanadi, muayyan adabiy-ma'rifiy va ijtimoiy-madaniy qonuniyatlar asosida o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tariladi. Ushbu qonuniyatlarni ilmiy baholash adabiyotshunoslik zimmasiga tushadi.

O'zbek adabiyotshunosligida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr avvalida kechgan milliy uyg'onish jarayoni adabiyotda yangi taraqqiyot tendensiyalarini shakllantirdi, poetik tafakkur o'z rivojining yangi davriga qadam qo'ydi, roman, drama, tragediya singari yangi janrlarga asos solindi, qadimiy an'analarga ega o'zbek she'riyati mohiyatan yangilandi. Lekin ushbu adabiy-estetik jarayon tizimli asosda ilmiy baholangan emas. Aslida, "...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadriini anglab yetadi"<sup>1</sup>.

Yangi o'zbek she'riyati yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillarini, poetik mazmun va shakl, obraz va tasvir usullari yangilanishi qonuniyatlarini aniqlash, ijodiy tafakkurning taraqqiyot tamoyillarini belgilash zarurati ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori"

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси //Халқ сўзи, № 19, 2020 йил 25 январь.

mavzusidagi ma'ruzasida hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yangi o'zbek she'riyatining takomil bosqichlari, adabiy-estetik tafakkur rivojidagi o'rni masalalari ikki bosqichda o'rganilgan. Birinchisi, yangicha ma'rifatparvarlik she'riyati jadid, ya'ni yangi o'zbek she'riyatiga o'tishda o'ziga xos bosqich bo'lib xizmat qilgani yuzasidan muayyan tadqiqotlar e'lon qilingan<sup>2</sup>. Ikkinchisi, jadid she'riyatining shakllanishi, poetik tadriji, milliy uyg'onish adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni masalalariga doir dissertatsiyalar himoya qilingan<sup>3</sup>, monografiyalar<sup>4</sup>, darslik va o'quv qo'llanmalari<sup>5</sup> nashr etilgan.

Kommunistik mafkura yakka hukmronligi davrida jadid she'riyatini yurtimizda ilmiy o'rganish yo'llari tamomila cheklangan kezlarda xorijiy mamlakatlarda yangi o'zbek she'riyatining nazariy asoslari, taraqqiyot tamoyillari, milliy ruh ifodasidagi o'rni kabi masalalar bir qadar keng o'rganilgan<sup>6</sup>.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan o'zbek va xorijlik adabiyotshunoslari tomonidan katta ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa ham,

<sup>2</sup> Юсупов Ш. Фуркат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи: фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 1990; Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX асрнинг охири ва XX аср бошлари): фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 1994; Жабборов Н. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний талқиқи, поэтикаси: фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 2004.

<sup>3</sup> Эрнazarova Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (А.Чўлпон, Ғ.Ғулom, А.Орипов шеърини мисолида): фил. фан. номз... дисс. – Т., 2001. – 147 б.; Йўлдошбекова С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: фил. фан. номз... дисс. – Т., 2002. –155 б.; Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси: фил. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2002. – 28 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърини шакллар тараққиёти тамойиллари: фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 2005. – 281 б.; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: фил. фан. д-ри... дисс. автореф. – Т., 2017. – 70 б.; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари: фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 2018. – 283 б.; Ҳожиева Ш.Х. Чўлпон шеърини поэтик тафаккурини ангитиш тамойиллари: фил. фан. бўйича фалс. док-ри... дисс. – Қарши, 2019. – 139 б.; Исмолова С. Чўлпон шеърларининг матний талқиқи ва илмий-танқидий матнини яратиш: фил. фан. бўйича фалс. док-ри... дисс. – Андижон, 2021. – 158 б.

<sup>4</sup> Шарафиддинов О. Чўлпон. Шоир ҳақидаги ривоятлар ва ҳақиқатлар. – Т.: Чўлпон, 1991. – 112 б.; Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001. – 69 б.; Наим Қаримов. Чўлпон. – Т.: Фан, 1991. – 84 б.; шу муаллиф XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: O'zbekiston, 2008. – Б. 185-217; шу муаллиф. Уч буюк сиймо (Абдулла Қодирий, Чўлпон, Ойбек). – Т.: Mumtoz so'z, 2019. – Б. 179-294; Қуროнов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Т.: Ўқитувчи, 1997; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002; Афоқова Н. Жадид шеърини поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – 140 б.

<sup>5</sup> Қаримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср бошларигача). – Т.: Ўқитувчи, 1987; Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004.

<sup>6</sup> Özbay N. Abdülhamid Süleymanoğlu Çolpan'ın Şiirleri (Metin-Aktarma-İnceleme) (Yayımlanmış Doktora Tezi), Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara 1992. –757 s.; Ercan N. Çolpan: Uygunış (Tenkitli Metin ve İndeks). Yüksek Lisans Tezi. İstanbul, Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1987. – 136 s. (Magistralik dissertatsiyasi. Ilmий рақбар: Y.Doç.Dr. Timur Kocaoglu. Marmara Üniversitesi); Kocaoglu Timur. Türkistan'da Yenilik Harakatlari. Hayrulla Ismatulla (Khayrulla Ismatilla). Чўлпон ва жаҳон (Çolpan va Cehân). –S. 227 – 287.

mazkur ilmiy ishlarda yangi o'zbek she'riyati genezisi va taraqqiyot tamoyillari masalalariga u yoki bu darajada munosabat bildirilgan, xolos. Ushbu dissertatsiya ana shu ilmiy muammo monografik asosda maxsus tadqiq qilingani bilan shu paytgacha bajarilgan tadqiqotlardan farq qiladi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yangi o'zbek she'riyati genezisini aniqlash va taraqqiyot tamoyillarini ilmiy-nazariy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yangi o'zbek she'riyati yangilanishida folklorizmlar va mumtoz poetik an'analarning o'rmini belgilash;

rus va G'arb she'riyati tajribalarining yangi o'zbek she'riyati shakllanishida adabiy-estetik omil ekanini yoritish;

yangi o'zbek she'riyatida poetik shakl va vazn yangilanishining ilmiy-nazariy asoslarini dalillash;

poetik obrazlar yangilanishining adabiy-estetik omillarini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon va XIX asr oxiri va XX asr avvalida ijod qilgan boshqa ijodkorlarning she'rlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** yangi o'zbek she'riyatidagi poetik mazmun, poetik obraz, poetik shakl va vazn yangilanishiga xos adabiy-estetik tamoyillarni belgilash masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, analitik, germeneytik, biografik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yangi o'zbek she'riyatiga xalq og'zaki ijodi an'analari poetik sintezi evolyutsiyasi xalqona ohanglarning adabiyotga ko'chishi, folklorga xos poetik shaklning yozma adabiyotga moslashuvi, ohang va shakl yangilanishi ta'sirida adabiyotga barmoq vaznining qaytishi hamda badiiyatning og'zaki ijodiyot vositalari bilan boyishi tarzida kechgani isbotlangan;

yangi o'zbek she'riyati genezisi mumtoz adabiyotga va jahon adabiy-estetik tajribasiga tayanishi vazn va shakl yangilanishi, an'anaviy obrazlarga yangi mazmun va g'oyalar yuklanishi, poetik janrlar ijtimoiy masalalar ifodasiga yo'naltirilishi, til va uslubning xalq ruhiyatiga yaqinlashuvi, dunyo adabiyoti bilan sintezlashuv singari tadrijiy takomil bosqichlarini o'tagani asoslangan;

yangi o'zbek she'riyatida poetik mazmun yangilanishi ikki adabiy-estetik omil: tafakkur yangilanishiga sabab bo'luvchi realliklar va ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri bilan bog'liq ekanini, poetik shakl yangilanishi esa aruzning ijtimoiy hayot masalalarini aks ettirishga moslashtirilishi, barmoq vazniga o'tilishi hamda shaklning yangi imkoniyatlari natijasida sarbast, sochma va erkin she'rning yuzaga

kelishi hamda nazmiy asarlar grafik shakllanishi xususiyatlarida namoyon bo'lishi dalillangan;

yangi o'zbek she'riyatida obraz yangilanishi tamoyili mumtoz poetik an'ana transformatsiyasida ma'rifatparvarlikning ta'siri hamda ijtimoiy-siyosiy voqelik fonida yangi obrazlar yaratilishi bilan xoslanishi aniqlanib, jamiyat va shaxs tafakkuri evrilishida hajviy obrazlarning badiiy vazifasi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

yangi o'zbek she'riyati genezisi uch asosga: xalq og'zaki ijodi an'analari, o'zbek mumtoz va jahon adabiyoti poetik tajribasiga tayanishi qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik va germeneytik metodlar vositasida dalillangan;

yangicha ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti namoyandalari lirik asarlari tahlili asosida poetik mazmun yangilanishining yetakchi xususiyatlari aniqlangan;

yangi o'zbek she'riyatida poetik shakl va vazn yangilanishi aruzning ijtimoiy hayot masalalari ifodasiga muvofiqlashuvi, aruzdan barmoqqa o'tilishi tadriji, sarbast, sochma va erkin she'rning yuzaga kelishi hamda nazmiy asarlar grafik shakllanishi jarayonlari bilan bog'liq ekani asoslangan;

poetik obraz yangilanishi yangi o'zbek she'riyatining takomilida alohida o'rin tutishi, mumtoz poetik an'ana va ijtimoiy-siyosiy muhit obrazlar mohiyati evrilishining asosi ekani isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** qo'llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy adabiyot tarixining nisbatan kam o'rganilgan, ammo o'ziga xos to'laqonli bir bosqichining yaxlit holda tadqiq etilganidan kelib chiqadi. Dissertatsiyadagi tahlil va xulosalar milliy uyg'onish davri adabiyotining mukammal tarixini yaratish ishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati XX asr boshlari o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha tadqiqotlar uchun material bera oladi, oliy o'quv yurtlarining "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" ta'lim yo'nalishida "O'zbek adabiyoti tarixi", "XX asr o'zbek adabiyoti", "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura mutaxassisligida "Jadid adabiyoti tarixi" kabi fanlardan ma'ruzalar o'qishda va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratishda manba bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yangi o'zbek she'riyati genezisi, taraqqiyot tamoyillari tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

yangi o'zbek she'riyatining shakllanishida xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz va jahon adabiyotining tutgan o'rni, poetik mazmun va shakl, badiiy obraz va ramzlar yangilanishi tamoyillariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan OT-FI-030 raqamli "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish" (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan

(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 7-iyuldagi 04/1-2275-son ma'lumotnomasi). Natijada yangi o'zbek she'riyatining genezisi, poetik tadriji va takomilining adabiy-estetik tamoyillari masalalariga doir fikrlar adabiyotshunoslikni konseptual fikrlar bilan boyitgan;

yangi o'zbek she'riyati taraqqiyosida o'zbek mumtoz adabiyoti poetik an'analarining o'rni bilan bog'liq tahliliy ma'lumotlar, poetik tafakkur yangilanishida mumtoz shoirlar qarashlari badiiy-estetik asos vazifasini bajarganiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan "PZ-20170926459 raqamli "Navoiyshunoslik tarixi" (XX-XXI asrlar)" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 7-iyuldagi 04/1-2274-son ma'lumotnomasi). Natijada yangi o'zbek she'riyati takomilida mumtoz shoirlar ijodining ta'siri, jumladan, poetik mazmun va shakl, obraz va ramzlar yangilanishi tamoyillariga doir fikrlar adabiyotshunoslikka yangi nazariy xulosalarni olib kirish imkonini bergan;

yangi o'zbek she'riyati shakllanishida xalq og'zaki ijodi o'zbek va jahon adabiyoti tajribalari badiiy-estetik asos vazifasini o'tagan, jadid she'riyatida poetik shakl va mazmun, obraz va ramzlar yangilanishi tamoyillariga doir ilmiy-tarixiy ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida e'fira uzatilgan "Mavzu", "Tarixiy savol", "Javohir", va "Ta'qdimot" ko'rsatuvlari ssenariysini yozishda tadqiqotda aks etgan ilmiy-nazariy qarashlardan foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi 2022-yil 7-iyuldagi 06/28-1095-son ma'lumotnomasi). Natijada milliy uyg'onish va jadid adabiyoti hamda uning Vatan va millat hayotida tutgan o'rni, milliy adabiyotimizning XX asr boshlaridagi yangilanishi masalalarini amaliy yoritish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatitsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, yetti faslni o'z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Yangi o‘zbek she‘riyati genezisi” sarlavhali birinchi bobi dastlabki faslida ilmiy muammo “*Xalq og‘zaki ijodi – yangi o‘zbek she‘riyati shakllanishining badiiy-estetik omili*” tarzida tanlanib, folklorizmlarning yangi o‘zbek she‘riyati shakllanishiga ta‘sir masalasi o‘rganilgan. Yangi o‘zbek she‘riyatiga folklor motivlari kirib kelishi adabiy-estetik mezonlarning yangilanishi ifodasi edi. Bu yangilanish jamiyatda boshlanib, undan she‘riyatga ko‘chdi. Xalq og‘zaki ijodi an‘analarning yangi o‘zbek she‘riyatiga kirib kelishi tadrijini quyidagicha tasniflash mumkin: *xalq og‘zaki ijodidagi ohanglarning adabiyotga ko‘chishi, folklorga xos poetik shaklning yozma adabiyotdagi transformatsiyasi, ohang va shakl yangilanishi ta‘sirida adabiyotga barmoq vaznining qaytishi hamda badiiy tasvirning og‘zaki ijodga xos maqol, matal, qarg‘ish, olqish, ramz va obrazlar bilan boyishi.*

Xalq og‘zaki ijodidagi lirik namunalar yengil o‘qilishi, o‘ynoqi ohangi bilan xarakterlanadi. Bu holat she‘rlarning tez yodda qolishiga, insonlar qalbi va ongiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishiga sabab bo‘ladi. Yangi o‘zbek she‘riyatining bosh vazifalaridan bo‘lgan millatni uyg‘otish, xalqni jaholat botqog‘idan olib chiqish uchun ayni shu xususiyat zarur edi. “Natijada, dastlab erkin aruz paydo bo‘ldi. Erkin aruz misralarda ba‘zan ruknlarning almashinishi, bir she‘rda bir necha xil vaznning istifoda etilishi bilan xarakterlanadi. Erkin aruz keyinroq xalq qo‘shiq-lari yo‘lidagi she‘rlar misolida aruz ramkalarining sindirilishiga olib keldi. Bunday she‘rlarda endi misralardagi hijolarning sonigina e‘tiborga olindi”<sup>7</sup>. Erkin aruzda ayni shu o‘ynoqi ohang yetakchilik qila boshladi. 11 hijoli vazn azaldan xalq dostonlarida yetakchilik qilgani, xalqchil ohangi, o‘zbekning tabiatiga, tiynatiga muvofiq ekani e‘tiboridan she‘riyatda mustahkam o‘rin egalladi. Fitrat ohangning: “Yozuvchi – adib so‘zlarning musiqiylik‘ini ko‘zda tutib, eshitishimizda chiroylik ham mavzuga munosiblarini tanlab quloqqa og‘ir kelmayturgan bir tartibda tizish”<sup>8</sup> ekanini ta‘kidlagani bejiz emas. Shoirning “Ohang” she‘ri quloqqa og‘ir kelmaydigan sof turkuy so‘zlar tanlangani barobarida xalqona ohangda bitilgani sababi shunda. Bu kabi urinishlar barmoq vaznining adabiyotga qaytishini ta‘minladi.

Milliy ruh ifodasi uchun barmoq eng qulay vazn edi. Bu vaznga qaytish dastlab Avloniy va Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar” turkumlaridan boshlandi. Bu o‘rinda vaznning “milliylik” masalasi ham borki, bu xususiyat she‘riyatning millat qalbiga chaqmoqdek ta‘sir etishini ta‘minladi. Barmoqning she‘riyatga qaytishi folklor va yangi o‘zbek she‘riyatini o‘zaro uyg‘unlashtirdi. Milliy ruh ifodasi zamirida xalq og‘zaki ijodiga xos obraz va ramzlarning kirib kelishi esa, tom ma‘noda yangi o‘zbek she‘riyati xazinasi boyishi uchun badiiy manba vazifasini o‘tadi.

Xalq og‘zaki ijodida ertaklar, masallar to‘liq ramzlar zamiriga qurilgan bo‘lib, ushbu an‘ana yangi o‘zbek she‘riyatiga yangi sifat darajasida ko‘chdi. Bu jihatdan Cho‘lpon she‘rlari alohida ahamiyatga ega. Shoirning “Go‘zal”,

<sup>7</sup>Афокова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърини шакллари тараққиёт тамойиллари: фил. фан. д-ри ... дисс. – Т. 2006. – Б.71

<sup>8</sup>Фитрат. Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 2009. - Б.15

“Binafsha”, “Qush hadigi” kabi she’rlari poetik ramzga asoslangani bois yangi o‘zbek she’riyatining eng nodir namunalarini sanaladi.

Umuman, folklor an’analari yangi o‘zbek she’riyatiga tadrijiy ravishda ko‘chdi va bu hodisa chinakam milliy adabiyotning yaralishida asos vazifasini bajardi.

Bobning ikkinchi faslida **“Mumtoz adabiyot an’analari – yangi o‘zbek she’riyati takomilining asosi”** ekani tadqiq qilindi. Bu jarayon, bizningcha, to‘rt bosqichda kechgan.

1. She’riyatning mumtoz adabiyotga xos vazn va shaklni saqlagan holda yangilana borishi. Yangi o‘zbek she’riyatida aruz vazni amalda bo‘lsa ham, tadrijiy suratda yangilanish jarayoni kechdi. Buning dastlabki ko‘rinishi aruzda ijtimoiy mazmun ifodasi yetakchilik qila boshlagani bo‘ldi. Undagi she’riy san’atlar, ifoda usullari yangi o‘zbek she’riyati shakllanishiga imkon yaratdi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, keyinchalik Avloniy, So‘fizoda, Tavallo ijtimoiy ruhni aruzda yuksak mahorat bilan talqin etdi. G‘azal mumtoz adabiyotda, asosan, ishqiy mazmun tashigan bo‘lsa, endi xalq hayotini badiiy aks ettira boshladi.

2. An’anaviy poetik obrazlarga yangi mazmun va g‘oyalar yuklanishi. Yangicha ma’rifatparvarlik va jadid she’riyatida mumtoz adabiyotdagi obrazlar mohiyati yangilana bordi. Furqatning “Bo‘ldi” radifli muxammasida, Avloniyning “Gul”, “Bulbul” radifli g‘azallarida mumtoz she’riyatdagi *oshiq-ma’shuqa-raqib* mazmunini ifodalab kelgan *gul, bulbul, xor (tikan)* obrazlari sof ijtimoiy *millat, ozodlik va mustamlakachi* ma’nolarida talqin etildi. An’anaviy obrazlar tamomila yangi mazmun kasb etdi. Obrazlar jamiyatning qiyofasini, ijtimoiy holatni yoritish vazifasini bajara boshladi.

3. Mavjud poetik janrlar ijtimoiy masalalar ifodasiga yo‘naltirilishi. Yangi o‘zbek she’riyati namoyandalari mumtoz janrlarda istibdod siyosati mohiyatini, ozodlik va erk ruhini ifodalay boshladi. O‘z poetik xossalari ega qasida janri mazmunan yangilangani buning isbotidir. Furqat qasidalarini shaklan an’anaviy bo‘lsa ham, mohiyatan yangilandi. Shoimning oqpodshohga atalgan qasidasi buning isbotidir. Qasidachilik an’anasiga ko‘ra hukmdor madh etilishi, maqtalishi kerak edi. Biroq Furqat qasidasi tagmatnida bosqinchilik siyosatini, insoniylikka tajovuzni qoralash mazmuni aks etgan. Ajdaho libosli sipohiy obrazli tasviri orqali oqpodshoh va uning siyosatiga qarshi munosabat ifodalangan. Qasidadagi:

Haqiqiy podshoh, jahonni intizomi-chun,

Majoziy podshohlarni jahong‘a hukmron etti –

satrlari esa shoimning asl ijodiy niyatini aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. “Asosiy fikrlarini asar tagmatnida berish, bosh xususiyati madh, maqtoq bo‘lgan qasida janrida qalovini topib, adolatsizlikni fosh etish uslubi Furqatning bu janr tabiatini yangilay olgani isbotidir”<sup>9</sup>, deb yozadi Nurboy Jabborov.

Shoimning munajat ruhidagi g‘azal va musaddaslarida ham ayni an’ana zamiridagi novatorlik kuzatiladi. Munajat g‘azaldagi:

<sup>9</sup> Жабборов Н. Алишер Навоийнинг увайсий шогирди. //Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal, 2022, 4-сон. – Б.133.

Mayi ilmdin masti irfon etib,  
Nasib etma jomi jaholat manga –

kabi misralar ma'rifatparvarlik adabiyotining bosh g'oyasini aks ettirgan. Bu usul jadid adabiyotida yanada takomilga erishdi. Avloniy hamd va na'tlari buning isbotidir. Ularda an'anaviy uslub saqlangani holda, poetik mazmun yangilandi. Millat boshiga tushgan istibdod zulmati, ozodlik ruhi aks etdi.

4. Badiiy til va ifoda uslubining xalq ruhiyatiga yaqinlashuvi. Davrning ruhi badiiy til va uslubning ham yangilanishini taqozo etdi. Furqatning "Vistavka xususida" she'rida ana shu xususiyatlar to'liq aks etgan. She'r ijtimoiy hayotdagi yangi hodisa talqiniga bag'ishlangani, lekin xalqona uslubda yozilgani bilan qimmatlidir. Hamza, Cho'lpon, Tavallo she'riyati badiiy tasvir vositalarining yangi ekani, sof turkiy til xususiyatlarini saqlashga intilish kuchliligi bilan alohida ajralib turadi. Bular barchasi mumtoz adabiyot an'analari yangi o'zbek she'riyati takomilida muhim o'rin tutgani isbotidir.

Bobning uchinchi fasli "*Yangi o'zbek she'riyatida jahon poeziyasi tajribasining badiiy sintezi*" deb nomlanadi. Yangi o'zbek she'riyati shakllanishi va takomili jahon poeziyasi tajribasining badiiy sintezi bilan ham bog'liq bo'lib, bu hol uch xil shaklda namoyon bo'lgani kuzatiladi: 1) jahon va milliy adabiyotning xos xususiyatlariga munosabat bildirilishi; 2) dunyo she'riyatining sara namunalari tarjima qilinishi; 3) jahon adabiyotining o'tmish va zamondosh namoyandalari ijodiga doir tadqiqotlarning yaratilishi. Tabiiyki, ushbu uch adabiy-estetik omil yangi o'zbek she'riyatining mazmun va shakl jihatdan boyishiga, poetik an'analarning yangilanishiga va takomiliga xizmat qildi.

"Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida" manzumasi Furqat adabiy-estetik olamini anglashda alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, "Turkiston viloyatining gazetisi"da mazkur asar matni qisqartirib nashr etilgan. N.P.Ostroumov "Sartı" asarida nashr variantidan qisqartirilgan misralarning rus tilidagi so'zma-so'z tarjimasini bergan. Edvard Ollvort "O'zbek adabiy siyosati" asarida bu satrlarni ingliz tilida keltirgan<sup>10</sup>. Furqat o'zbek she'riyati ruslarga tushunarsiz bo'lishi mumkinligi va bu hol tabiiy ekani haqida yozadi. Shoir fikricha, chunki ular Pushkin, Lermontov va Nekrasov kabi o'z shoirlari she'riyatini o'qiydi va yaxshi biladi. Bu uch shoir o'ziga xos uslubda yozgan va iste'dodning kuchini ko'rsatgan. Bizning she'riyatimiz ham, obrazlarimiz ham ularnikiga o'xshamaydi. Bu fikrlar shoirning rus she'riyati darg'alari ijodini chuqur o'rgangani, katta ehtimol bilan ular asarlarini originalda o'qiganiga doir xulosaga olib keladi.

Tabiiyki, dunyo adabiyoti bilan tanishuv izziz kechmaydi. Bu hodisa shoir dunyoqarashi va uning adabiy-estetik idealiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ana shu jarayon yangicha ma'rifatparvarlik adabiyotining yorqin namoyandasi Zokirjon Furqat ijodidan boshlanib, jadid she'riyatida izchil davom etdi.

Jadidlar "usuli savtiya" maktablari uchun darsliklar yaratar ekan, ayniqsa, rus adabiyotining sara namunalari o'zbek tiliga tarjima qilib, darsliklarga kiritdilar. Jumladan, Saidrasul Aziziy yaratgan "Ustozi avval" darsligidan rus mumtoz ijodkorlaridan L.N.Tolstoyning "Qishloqi birla bolasi", "Bola va otasi",

<sup>10</sup> Allworth, Edward. Uzbek literary politics. London - Paris, 1964. P.27-28.

“Yolg‘onchi cho‘pon” hikoyalari, I.A.Krilovning “Tulki birla uzum” masali o‘rin olgan. Bu tarjimalar, birinchidan, ushbu san‘atning betakror namunalari ekani, ikkinchidan, o‘zbek bolalar adabiyoti shakllanishi va takomiliga muayyan ta‘sir o‘tkazgani jihatidan katta ahamiyatga ega.

Jadid ijodkorlar, ayniqsa, Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatida jahon adabiyotiga xos yutuqlar o‘ziga xos aks etgani ma‘lum. Ahamiyatli jihati, jadidlar rus va Yevropa she‘riyati namunalarini dastlab aruzda tarjima qilgan. Cho‘lpon tomonidan amalga oshirilgan rus shoiri Aleksandr Pushkinning “Bulbul va gul” she‘ri tarjimasi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: *“Bahor chog‘da xoli bog‘da bir zulmatli tun erdi, G‘arib bulbul fig‘on aylab: “Gulim rahm aylagil”, derdi”*. Shoir she‘rni aruzning hazaji musammani solim (taqte‘si: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*) vaznida tarjima qilgan. Tarjima san‘atining bugungi talabiga ko‘ra, aslyatdagi poetik shakl saqlanishi zarur. Ilk tarjimalarda bu masalaga erkinroq yondashilgan. Ular yangi poetik izlanishlariga yo‘l ochgani ham ayni haqiqatdir.

Cho‘lpon lirikasi rus she‘riyati darg‘alaridan Aleksandr Blok ijodiy tajribalarini ham mujassam etgani kuzatiladi. O‘zbek mumtoz she‘riyatida nazmiy asarlarga sarlavha qo‘yilmagan. Jadidlar esa rus va Yevropa poeziyasi ta‘sirida she‘rlarga sarlavha qo‘yish an‘anasini boshladi. Blok dostonlaridan biriga “O‘n ikkilar” deya nom bergan. Cho‘lpon ayrim lirik she‘rlariga shunga o‘xshash sarlavhalar qo‘yadi: “O‘n olti”, “Olmishlarga” va h.k. Chet mamlakatlar va xalqlar hayotidagi muayyan voqelik ta‘sirida she‘rlar ijod qilish borasida ham Cho‘lpon rus shoiri Aleksandr Blokdan ta‘sirlangani kuzatiladi. Shoirning “Luzon”, “Nil qizi”, “Kleupatra uyqusi”, “Kaptar”, “Bir lavha”, “Ketganingda” singari she‘riy asarlari ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Biz uchun muhimi, yangi o‘zbek she‘riyatining yuzaga kelishida jahon poeziyasi, Sharq G‘arb ijodiy tafakkurining o‘ziga xos ta‘siri borligidir. O‘zaro ta‘sir she‘riyatning, badiiy-estetik tafakkurning yangilanishida asosiy omil vazifasini o‘tagan.

Cho‘lponning Robindronath Thakur ijodiga murojaati zamirida buyuk shoirga xos katta va ulug‘ maqsad bor edi. Bu turkiy xalqlar adabiyotini Tago‘r hind adabiyotini olib chiqqan darajaga yetkazish g‘oyasi edi. Cho‘lponda mazkur g‘oya bo‘lganini uning “Ulug‘ hindiy” maqolasida avval o‘zbek, so‘ng turkiy adabiyotlar orasida nisbatan ilg‘or bo‘lgan tatar, ozarbayjon va usmonli adabiyotini qisqa tahlil qilib, eski uslubdan yangisiga juda sekin borilayotganidan taassuf chekkani ham isbotlaydi. Cho‘lpon turkiy adabiyotda eski ruhni saqlagan holda yangi (G‘arbg‘a xos) shakllarni o‘zlashtirish tamoyilini ilgari surishi, shu yo‘l bilan bu adabiyotni taraqqiy ettirishga ishonchi ham ana shu kichik maqolada ayon bo‘ladi. Shuningdek, maqolada shoirning Tago‘r ijodidan uchta she‘rni tarjima qilib nashr ettirayotganini ham bilib olish mumkin. Bular jahon adabiyotidan tarjimalar yangi o‘zbek she‘riyati takomiliga xizmat qilgani dalilidir.

Ikkinchi bob **“Yangi o‘zbek she‘riyatida poetik mazmun va shakl yangilanishi tamoyillari”** tadqiqiga bag‘ishlangan. **“Poetik mazmun yangilanishi tamoyili”** deb nomlangan birinchi faslida yangi o‘zbek she‘riyatining mazmuniy o‘zgarishiga ta‘sir qilgan omillar xususida so‘z yuritilgan.

Ma'rifatchilik va jadid adabiyotida yangilanish jarayoni mazmundan shakl tomon yo'nalgan edi. Dastavval adabiyotdagi yangi g'oya va qarashlar mazmuni tubdan o'zgartirib yubordi. Yangilanishning ikki omili borligi kuzatiladi:

✓ *Tafakkur yangilanishiga sabab bo'luvchi realliklar;*

✓ *Ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri;*

Zamonaviy ruh, yangi mavzular, eng avvalo, she'riyatda o'z aksini topadi. Ijtimoiy hayotdagi evrilishni birinchi bo'lib aks ettiradigan she'riyat insonlar qalbidagi, ong-u shuuridagi po'rtanalarini ham bamisoli oynadek namoyon qiladi. Komil Xorazmiydan Furqat, Muqimiy va Hamzagacha bo'lgan shoirlar ijodida ayni holat kuzatiladi. Yangicha ma'rifatparvarlik adabiyotidagi dastlabki she'rlarda millat hayotidagi yangi predmet va hodisalarga alohida diqqat qaratilgan: poezd, pianino, ball va fotografiyadan sekin-asta matbaa, teatr, gazeta kabi hodisalar badiiy ifodasiga o'tilgan. Bu mazmun yangilanishining ilk bosqichi edi. Komil Xorazmiyning "Ikki sho'x" g'azali ayni shu yo'ldagi ilk irod namunalaridan. Bu g'azal mavzu, g'oya, novatorona ruh va badiiy mahorat jihatidan ham yangicha bo'lib, shoirming avvalgi asarlaridan tamomila farq qiladi.

*Tafakkur yangilanishiga sabab bo'luvchi realliklardan* iborat she'rlar yangi mazmun yuzaga kelishi uchun yetarli emasligini ijodkorlar teran anglagan. Adabiyot taraqqiyoti u ko'tarayotgan mavzu dolzarbligi, ahamiyati, yangiligi bilan ham bog'liq. Chunki "...so'z san'atining tadriji, avvalo, mazmundagi o'zgarishlar bilan xarakterlanadi, zero, har bir avlod o'ziga meros an'analarni, avvalo, mazmunan boyitadi. Mazkur qonuniyatning tagzaminida esa ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va shu o'zgarishlar natijasi o'laroq voqe bo'lgan yangi siyosiy-ijtimoiy-ma'naviy kayfiyat yotadi. Demak, shaxs faqat sharoitning – muayyan davminggina mahsuli bo'lib qololmaydi. U davrga xos xususiyatlarni o'ziga singdirishi mumkin, lekin o'z missiyasini – anglangan vazifasini ado etish yo'lida har qanday davr chegarasini yorib o'tadi"<sup>11</sup>. Jadid ijodkorlar ayni shu missiyani mukammal darajada ado etdi, deyish mumkin.

Yangi o'zbek adabiyotining yetakchi mavzusi – *ma'rifat*. Jadidshunos Begali Qosimov ma'rifat jadidlar uchun maqsad emas, istiqlolga erishish yo'lidagi vosita bo'lgan, deb hisoblaydi<sup>12</sup>. Ma'rifatga intilish yangi o'zbek she'riyatida turli uslub va janrlarda, yo'nalishlarda aks etdi. Muqimiy satirik she'rlari bilan, Avaz O'tar esa achchiq tili, Zavqiy hajviyalari, boshqa ijodkorlar esa didaktik ruhdagi asarlari bilan ma'rifatni targ'ib etdi.

*Mavzular sintezi* yangi o'zbek she'riyati taraqqiyot omillaridan biriga aylandi. Sintezlashuv jarayoni, mazmunning yangilanishi yangi adabiyotning yuzaga kelishiga asos bo'ldi, deyish mumkin. Major olimi Yanosh Ekmanning fikricha: "O'sha paytda Qo'qonda modern tushunishli bir shoirlar guruhi bor edi"<sup>13</sup>. Ayni shu moderncha tushunish yangi o'zbek adabiyotining ildizi va poetik mazmun yangilanishining asosiy sabablaridan biri bo'lganini ta'kidlash kerak.

<sup>11</sup> Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: фил. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2017. – Б.12.

<sup>12</sup> Қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б.128.

<sup>13</sup> Janos Eckmann. Harezm, kipcak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. Ankara, 1996. -S.232.

Mazmun yangilanishi dastavval jamiyat hayotiga kirib kelgan yangi voqelik, predmetlar ifodasidan boshlanib, keyinchalik ijtimoiylashuv, shaxs va jamiyat hayotiga daxldorligi bilan katta badiiy evrilishga sabab bo'ldi.

Ikkinchi fasl *“Poetik shakl yangilanishi tamoyili”* deya nomlanib, unda mazmuniy yangilanish asnosida sodir bo'lgan shakliy o'zgarishlar tahlilga tortilgan. Yangi o'zbek she'riyatidagi mazmuniy yangilanish o'z-o'zidan shakliy yangilanishni taqozo etdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlari adabiyotiga xos poetik shakl bobidagi izlanishlar o'zining islohiy xarakterga egaligi bilan farqlanadiki, ularning natijasi o'laroq yangi o'zbek she'riyati vujudga keldi. “Shakl bobidagi izlanishlar eng avval she'ring ritmik-intonatsion sathida ko'zga tashlanadi. Ushbu izlanishlar avvaliga aruz doirasida amalga oshdi deyilsa, to'g'ri bo'ladi. Bu o'rinda she'r o'lchovlari va she'r shakllaridan jonli tilga, xalq ijodidagi ohanglarga eng yaqinlarining keng istifoda etilishini nazarda tutmoqdaman. Masalan, Muqimiy lirikasi. Shoir merosida salmoqli o'rin tutuvchi murabbalar ohangi xalq qo'shiqlariga juda yaqin”<sup>14</sup>. Demak, shaklning dastlabki o'zgarish jarayonini *aruzning ichki islohi* sifatida baholash mumkin va bu jarayon mumtoz she'riy janrlar xususiyatidan kelib chiqdi.

Barmoq vazniga o'tish, ta'kidlanganidek, tadrrijiy asosda yuzaga keldi, ya'ni aruz vazniga o'ziga xos yondashuv va barmoq vazniga kirish *she'ring grafik shakllanishidagi* o'zgarishlar asnosida kuzatildi. Cho'lponning “Ko'ngil”, “Xalq”, “Go'zal” va boshqa ko'plab she'rlari buning isbotidir. Aruzga band tizimining kirishi uni xalq ohanglariga, barmoq vazniga yanada yaqinlashtirdi. Bu holat nafaqat Cho'lpon, balki boshqa ijodkorlar she'riyatida ham davom etdi. Xususan, Zavqiyning “Bo'lg'onim bo'lg'on” radifli g'azalida ham ayni holat kuzatiladi.

She'riyatda shakliy yangilanish jarayonida qofiya tizimining o'rni alohida. Bu borada ham o'ziga xos o'zgarishlar kuzatildi. Natijada she'rda qofiya qat'iy talab darajasida bo'lmagan holatlar vujudga kela boshladi. Jumladan, Fitratning “O'git”, Cho'lponning “Buzilgan o'lkaga”, “Xalq” she'rlarida qofiya tizimining erkin tuzilishiga duch kelamiz.

Ey! Sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!

Ey! Ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan.

Ey! Bo'ynimga kishan solib, halokatga sudragan,

Ko'zlaringni zaharlatib o'ynatmagil, bas endi!

She'ring qofiyalanish tizimi a-b-b-a; a-a-b-b-a; a-a tarzida bo'lib, ikkinchi banddagi “gupurdi”, “uzildi” so'zlari o'zaro och qofiya. Ushbu she'ring qofiyasi an'anaviy qofiyalanish tizimidan farq qiladi. Bu ham, o'z navbatida, shaklga novatorona yondashish hosilasidir.

Avloniy ijtimoiy mavzudagi aksar she'rlarini barmoqda yozdi. Ushbu vaznni xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o'tdi. Shoiring barmoqdagi ilk she'rlari xalq qo'shiqlariga moslab yozilgani holda katta ijtimoiy mazmunni aks ettirdi. Masalan, uning “To'y haqinda” she'ri xalq ashulasi yo'lida yozilgan bo'lib

<sup>14</sup> Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 2017. – Б.175.

jamiyatdagi illatlar tanqidiga bag'ishlangan. "Hamza yangi g'oya va mazmunni ifodalash uchun yangi shakl va uslublar qidirildi. Yangi navolarni yangi havolarda ifodalashga harakat qildi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914 yil 18 iyul sonida bosilgan "She'ri mansur"i o'zbek adabiyotidagi verlibr – erkin she'rning dastlabki namunasi edi. Rembo, Pol Elyuar, Nozim Hikmat, Pablo Neruda, Rafael Albertti, Nikolas Gilsen nomlari bilan xarakterlanadigan bu she'r sistemasi XX asr jahon poeziyasining eng yirik hodisasi ekanligi, ayniqsa inqilobiy she'riyatning vazni bo'lib qolganligi bugun hammaga ravshan"<sup>15</sup>.

Shakliy izlanishlar o'z-o'zidan janriy o'zgarishlarga ham sabab bo'ldi. Jumladan, sayohatnoma, maktub, satiralar o'ziga xos shakllarda yangi o'zbek she'riyatida sof ijtimoiy mazmunni ifodalay boshladi. Yangi o'zbek she'riyatidagi muhim yangi janrlardan biri sifatida **maktub** yangicha mohiyat kasb etdi. She'riy maktublar o'tmish adabiyotda ham uchraydi. Biroq yangi o'zbek she'riyatidagi maktub janri yangicha ijtimoiy-siyosiy ruhni aks ettirdi. Muqimiyning bizgacha 10 tacha ("Assalom", "Minnatdorman", "Javobi ruq'ayi Nodim Namangoni", "Nuktadonlar assalom", "Salom, ey mehribonlar", "Salom, ey yoru oshnolar" va h.k.) she'riy maktublari yetib kelgan bo'lib, she'riyatda shaklni yangilashda muhim o'rin tutadi. Furqat she'riy maktublari ham shunchaki "duoi salomlar" bo'lmay, shoirning kayfiyati, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va ijtimoiy muhit haqidagi qimmatli satrlarni o'z ichiga olgani bilan xarakterlidir. Bu holat o'z-o'zidan o'zbek she'riyatida tamomila yangi poetik shaklga asos bo'ldi. Xususan, Fitrat va Cho'lpon ijodida erkin va oq she'rlarning paydo bo'lishi adabiyotdagi an'naviy shakllarning tamomila yangilanishidan darak edi. Sarbast shakli garchi yangi o'zbek she'riyati uchun yangi shakl hisoblansa-da, Fitrat bu shaklga tamomila o'ziga xos ruh, ijtimoiy mazmun yukladi.

Tadqiqotning uchinchi bobida "**Poetik obraz va ramzlarning yangilanishi**" muammosi tadqiq qilingan. "**Poetik obraz yangilanishi tamoyili**" sarlavhali birinchi faslda yangi o'zbek she'riyatidagi obrazlarning yangilanish tamoyillari va mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlarning yangicha ma'no kasb etishi tendensiyasi misollar asosida tahlilga tortilgan. Obrazlarning yangi mazmun kasb etishi va yangi obrazning yaralishi tamoyilini ikki bosqichga ajratish mumkin:

- mumtoz poetik an'ana transformatsiyasiga ma'rifatpavarlikning ta'siri;
- ijtimoiy-siyosiy voqelik fonida yangi obrazlar yaralishi.

Birinchi bosqichda yangi obrazlar yaratilmay, mavjud obrazlar mazmunan yangilandi. Jumladan, Komil Xorazmiy mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlarga ma'rifiy mohiyat yukladi. Birgina misol:

Hilol etmang xayol, ey do'stlar, bu gunbazi gardon,

Yasar el qatlig'a har oy boshi bir xanjari burron.

Mumtoz she'riyatda hilol yorning oydek jamolini, malohatini vasf etish maqsadida qo'llangan. Komil esa o'z davri hodisalaridan kelib chiqib, obrazga yangi ma'no yuklagan va original o'xshatish qila olgan. "Bu o'rinda Komil yangi

<sup>15</sup> Қосимов Б., Танланган асарлар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Уч жилдлик. 2-жилд. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2022. – Б. 541.

oy hilolni xalqni o'ldirish uchun yasalgan o'tkir bir xanjarga o'xshatadi"<sup>16</sup>. Ibrat esa "Chaman ichra" g'azalida an'anaviy gul va bulbul obrazlariga mumtoz adabiyotdagidan keskin farq qiluvchi ijtimoiy ma'no yuklaydi.

Cho'lpon she'riyatida davrga hamohang tarzda g'oya va mavzu yangilangani kabi uning ramz, majoz va timsollar olamida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Professor Nurboy Jabborov fikricha: "Cho'lpon she'riyatida istiqloq haqidagi armonlaru orzular xayol, kishan, bulut, yulduz, tong singari poetik ramzlar vositasida betakror badiiy talqin etilgan. Bir she'rida shoir "chechaklar ungusi ko'z yoshlarimdan" deganidek, uning she'rlari ko'ngillarda ozodlik chechaklari unishiga zamin bo'ldi"<sup>17</sup>. Obrazda yangilik qilish shakldagiga nisbatan ancha murakkab bo'lishiga qaramay, jadid she'riyati vakillari bunga muvaffaq bo'ldilar.

Ikkinchi bosqich yangi obrazlar yaratilishi bilan bog'liq. Adabiyot ijtimoiy tuzumni, millatning tafakkurini yangilashga intilayotgan bir davrda ijod ahli uchun yangi va o'ziga xos obrazlar tizimiga ehtiyoj sezildi. Natijada ana shunday obrazlarning butun boshli bir tizimi yaratildi. Jumladan, Fitrat qor obrazi orqali ("Qor" she'ri) xalqning oppoq orzulari ifodasini berishga intildi, qorni ramziy obraz sifatida gavdalandirib, ucha-ucha maqsadiga yetmay shamolda sovrilgan tilaklarni o'ziga xos tarzda tasvirlashga urindi.

Yangi obraz kutilmagan holatda yorqin iste'dod tomonidan yaratiladi. Jumladan, Cho'lpon ijodidagi qon va bulut obrazlari ayni shunday takomilga yetgan obrazlardan. Shoir she'rlaridagi *"Har kimdan ko'p qon yig'lagan sen eding"*, *"Ko'pdan ichib kelgan qonlarin uning"*, *"Quyuk bulut to'dasi qonli yosh to'kib yig'lar?"*, *"G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek"*, *"Zo'r dengizning to'lginida, bag'rida, Yuz yillarning qonli, qo'rqinch izi bor;"* kabi misralarda yurtning ayanchli ahvoli, xalq boshiga tushgan mislsiz jabr-zulmlar, otalar faryodi, onalar fig'oni, go'daklar ohu-nolasi, beva-bechoralarning alamli ko'z-yoshlari aks etgan. *"Bulut ko'zidan esa yerga og'u – yosh sochilar."*, *"Mening o'yimmi qora? Yo yurt ko'kida bulut?"*, *"Qora bulut to'dasikim, ko'klarni, Sharqni yopgan parda yanglig' yopmishdir"*, *"Qop-qora dev kabi bulut yig'ini, Qoplab oldi yana quyosh yuzini"*, *"Ko'k yuzida qop-qora, Ko'mir kabi qator-qator bulutlar"* kabi misralar orqali esa yurtimiz boshiga kelgan balolar, xalqimiz hayotini inqirozga olib kelgan ofatlar bulut obrazi orqali gavdalandiriladi.

Yangi o'zbek she'riyatida obrazlarning nafaqat shakli, hatto mohiyati ham tubdan yangilandi. Bu esa, millat adabiy-estetik tafakkuri o'sishiga olib keldi.

Uchinchi bobning *"Hajviy obrazlarning ijtimoiy voqelik talqinidagi o'rni"* sarlavhali ikkinchi faslida yangi o'zbek she'riyatining mazmuniy yangilanishida ana shu turdagi obrazlarning poetik vazifasi tahlil etilgan.

Hajviy obrazlar jamiyatning o'ziga xos jihatlarini va unga ijodkor munosabatini aks ettirishi bilan alohida yo'nalish sifatida taraqqiy topa bordi. "Rus

<sup>16</sup> Хоразмий, Комил. Девон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1975. –Б.9.

<sup>17</sup> Jabborov N. Cho'lpon she'riyatidagi ayrim ramzlar poetikasi. /Yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho'lpon ijodining o'rni. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. –Andijon, 2022. –B. 123.

istilosi tufayli ijtimoiy hayotdagi hodisalar, yangiliklar va ularning xalq hayotiga ta'siri, bunga mahalliy aholining munosabati ilk bor Muqimiy va uning atrofidagi shoirilar ijodida tahlil qilinib, yangi mavzularga yo'l ochib boshladi. Masalan, hurriyat, pech, gazet, fonus, telegram, bonka, prujinalik kolyaska, poezd, vekselsingari maishiy hayot detallarining kirib kelishi bejiz emas. Adabiyotning faqat g'oya, mazmun-mundarijasidagina emas, ayrim tur va janrlar (sayohatnoma tipida she'rlar, sikllar, muvashshahlarga ko'plab murojaat etilishi, o'zbek adabiyoti tarixida mutlaqo yangi obraz (Viktor, Laxtin, Suvorov, Dukchi Eshon, Xudoyorxonlarning yaratilishi) va til xususiyatlari (sof turkiy so'zlarning ishlatilishiga e'tibor, ifodaning leksik va grammatik jihatdan soddalashuvi, arabcha va forscha iboralarning kam ishlatilishi)da ham o'zgarishlar bo'ldi"<sup>18</sup>.

